



Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 19-oktabr, payshanba,

124 (23.845)-son

KUN
HIKMATIFarzand oldidagi
burch oql
insonni doim
mas'uliyatga
chorlaydi

YANGI O'ZBEKİSTON – YASHIL MAKONDA BIRGA YASHAYLIK!

Samarqand viloyati mahalla faollari, nuroniyalar, ziyorolar,
xotin-qizlar va yoshlar vakillarining viloyat ahliga

MUROJAATI

Aziz samarqandliklar!

Bugun dunyo miqyosida sувдан, tуророdan notо'г'ри foydalanish, ekologik jihatdan zararli texnologiyalarни qo'llash oqibatida sayyoramizda iqlim o'zgarib, bioxilm-a-xillik yo'qolib bormoqda.

Shuning uchun ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yaqinda BMT minbaridan insoniyat hayotiga tahdid solayotgan iqlim o'zgarishi, bioxilm-a-xillik yo'qolishi va atrof-muhit ifloslanishini bartaraf etishga doir muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Davlatimiz rahbari joriy yil 11-oktabrdra o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida mazkur masala bo'yicha bir qator muhim takliflar bildirib, ustuvor vazifalarni belgilab berdi. Jumladan, 25-oktabrdan 1-dekabrga qadar yurtimizda "kuzgi daraxt ekish mavsumi" e'lon qilindi.

Biz — bugun jahon turizmi markaziga aylanib borayotgan Samarqand viloyati faollari Prezidentimizning ana shu tashabbuslaridan ruhanlib, barcha samarqandliklarni "Yangi O'zbekiston – yashil makonda birga yashaylik!" degan olijanob g'oyani qo'llab-quvvatlashga chaqiramiz.

Ushbu mavsumda viloyatimizda 7 million tup ko'chat ekishni maqsad qilganim. Buning uchun yetarli miqdora da daraxt va buta ko'chatlari zaxirasi yaratilgan.

Qadrli yurtdoshlar!

Milli qadriyatlarimizga sodiq qolgan holda, oilada farzand dunyoga kelganda unga atab ko'chat ekish, hashar yo'li bilan bog'-rog'lar yaratish, imoratlar atrofini ko'kalamzorlashtirish kabi ezgu an'analarimizga hamohang tarzda yurtimizda har bir xonodon tomonidan 20 tup ko'chat ekish va o'stirish tashabbusini qo'llab-quvvatlashga va unda faol ishtirot etishga chaqiramiz.

Shuningdek, har bir fuqaroning to'y va boshqa yaxshi kunlarda nihol ekishi an'anaga aylantiramiz.

Qadrli mahalla faollari, ko'cha-bo'yuboshilar!

O'zimiz yashab turgan mahallani obod qilish, saranjom-sarishta maskanga aylantirish avvalo, sizlarning fidoyiligidengizga bog'liq. Shu bois mahalladagi bo'sh turgan joylar, ariq yoyralari va maydonlarda daraxt ko'chatlari o'tqazishda tashabbuskor bo'laylik. Bu ishga kattayu kichikni jalb etaylik! Mahalla ahlining hamjihatligini kuchaytirib, hudud obodligi va aholi farovonligiga xizmat qiladigan loyihalarni kengaytiraylik. Buning uchun har bir mahallada "mahalla bog'lar-i"ni yaratishimiz, yashil hududlarni ko'paytirishimiz, shaxsiy namuna sifatida dastlab o'z xonadonimiz va ko'chamizni obod qilishimiz, "Yashil makon" umummilliy loyihasiga o'z hissamizni qo'shishimiz zarur.

Ekilgan har bir niholni parvarishlash va saqlashda mahalla faollari, boshqaruv-servis kompaniyalari jonbozlik ko'rsatishi lozim. Buning uchun "mahalla yettiligi", ko'chaboshi va uyboschilar hamda xonadan egalarini mas'ul sifatida biriktirish maqsadga muvofiqidir.

Muhtaram nuroniyalar!

Sizlarning hayotiy tajribangiz, duo va tilaklarining xalqimiz uchun hamisha katma tayanch bo'yib kelmoqda.

Samarqandlik nuroniylardan mahallalarda "Yashil makon" umummilliy

loyihasini amalgalashda, aholi tomonidan ko'chatlarni namunalni ekishni tashkillashtirishda yanada faoliyat va tashabbus kutamiz. Sizlarning shaxsingiz namunangiz, pandu nasihat, tavsiva va ko'rsatmalaringiz barchamiz uchun muhim.

Hurmatli dehqon va fermerlar, toromqa yer egalar!

Yerga mehr berish, uning har bir qarichidan unumli foydalanish, ko'chat ekib, bog' yaratishda sizlarning tajribangiz katta. Bugun ana shu tajribani ishma soladigan, uni boshqalarga o'rnatadigan palla.

Shundan kelib chiqib dala chetlari, tomorqlardacha ko'chat ekishga har qachongidan ham ko'proq e'tibor qaratish lozim.

Har bir xonardon egasi o'z tomorqasiga, mahalla va ko'chasinga 10 tutdan ko'chat eksa ayni muddao bo'lardi.

Fermerlarimiz "Bir dala – bir mahsulot" tamoyili asosida o'z hududiga tut, tok, terak va boshqa ko'chatlari eksa, har bir qarich yerimiz bog'-rog'larga aylanadi.

Qadrli ziyorolar, fan, adabiyot, san'at namoyandalarini va sportchilar!

Jonajon Vatanimiz taraqqiyotiga hissa qo'shadigan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashda sizlarning faol ishtirotkingiz muhim.

Siz kabi el tanigan ijod ahliga, ziyoiliar hamda sport yulduzlariga viloyatimiz yoshlar o'zgacha havas bilan qaraydi.

Shunday ekan, yurtimizda amala oshirilayotgan kuzgi daraxt ekish mavsumida sizlarning yangi-yangi tashabbuslari, amaliy harakatlar hamda shaxsiy namuna kutib qolamiz!

Mo'tabar onaxonlar, aziz opa-singillari!

Xonadonimiz, mahallamiz fayzu tarovati siz bilan go'zaldir!

Tabiat ham ona kabi muqaddas! Ona va tabiat tushunchalari bir-biriga hamohangdir. Onani qanday e'zozlasak, tabiatni ham shunday qadrlashni farzandlarimiz ongu shuuriiga chucher singdiraylik!

Toki, surriyotlarimiz ota-bobolarimiz singari bog'u bo'stonlar yaratuvchisi, ona tabiat himoyachisi bo'lsin! Shundagina tabiatni asl holidek saqlab, uni kelajak avlodga bezavol yetkazishga erishamiz.

Mahallalarda "Onalar bog'i" tashkil etish tashabbusini ham qo'llab-quvvatlab, viloyatimizda keng joriy etamiz. Bu ishlarda viloyatimizda 1126 mahalla xotin-qizlari faol ishtirot etishlariga ishonchdiraylik!

Aziz yoshlar!

Sizlarning Yangi O'zbekistonning bunnodkor kuchisiz! Xalqimiz ko'zlayotgan yuksak marralarga erishishda aql-zakovatingiz, g'ayrat-shioatingiz, ona Vatan ga bo'lgan sadoqatingiz beqiyosidir.

Ona zaminimizga mehr bering!

Nurli kelajak uchun bugundan boshlab o'z xonadoningiz, ko'changiz, mahallangizda niholingizni eking, hududda "Yoshlar bog'i"ni tashkil etishda tashabbus ko'rsating!

Aziz samarqandliklar!

Daraxt ekish va uni parvarishlashni majburiyat emas, qadriyat sifatida qabul qilaylik!

Har birimiz kelajak avlod oldidagi burchimizni chucher his qilgan holda, "Yashil makon" loyihasini umumxalq milliy harakatiga aylantiraylik!



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



SHAHAR KUNI KENG NISHONLANDI

Samarqand shahri kuni tadbirleri Amir Temur maqbarasi ziyorati bilan boshlandi.

Viloyat va shahar hokimliklari, keng ja-moatchilik vakillari ishtirotida Qur'on tilovat qilinib, qurbanlik amallari bajarildi.

Shundan so'ng Sohibqiron Amir Temur haykal poiyiga gullar qo'yildi. Ushbu yodgorlik 1996-yilda ulug' davlat arbobi tavalludining 660 yilligi munosabati bilan o'rnatilgan va 18-oktabr kuni tantanali ravishda ochilgan edi. Aynan shu kuni ushbu sana Samarqand shahri kuni sifatida e'lon qilingandi.

– Dunyodagi har bir yurt, shaharning paydo bo'lishi tarixi bor, – deydi Samarqand davlat universiteti professori Suyun Karimov.

– Sharq gavhari bo'lgan Samarqand ham

uch ming yillik tarixa ega. Buni butun dunyo e'tirof etidi. 18-oktabrni esa 27 yildan buyon qadimiy shahrimiz kuni sifatida nishonlayap-miz. Bu ham dunyoga Samarqandni namoy-on etish uchun bir imkoniyat.

Tadbir ishtirotchilari, faollari, davlat mukofoti sohiblari, nuroniyalar bayram das-turxoniga taklif etildi. Unda viloyatimizning taniqli san'atkorlari Vatan va Samarqandni madh etuvchi qo'shiqlar kuyladi.

Shahar kuniiga bag'ishlangan tadbir Al-isher Navoiy nomli ko'chada tashkil etilgan bayram sayli bilan davom etdi. Unda ta'lim muassasalari, milliy madaniy markazlar va killarining turli madaniy chiqishlari, tadbirkor va hunarmandlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar savdo yarmarkasi o'tkazildi.

Sana munosabati bilan shaharda bir qator yangi obyektlar foydalanishga topshirildi.

Loyiha qiymati 14 milliard so'm bo'lgan "Marjon" mehmonxonasi ishga tushishi natijasida 42 ta yangi ish o'rni yaratildi. Bir vaqtning o'zida 88 nafar mehmonni qabul qilish imkoniyatiga ega zamona biniqda ziaror sharoitlar yaratilgan.

6 gektarlik maydonda barpo etilgan 4 yulduzli "Sulton" mehmonxonasi 50 o'rning mo'ljallangan. Bu loyiha amalga oshirilishi uchun 5 milliard so'mga yaqin mablag' sarflangan. Mazkur obyekt foydalanishiga topshirilib, Samarqanddagi mehmonxonalar soni 170 taga yetdi.

Samarqand shahri kuni munosabati bilan "Marmar dehqon bozori"da arzonlashtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdo yarmarkasi tashkil etildi.

To'iqin SIDDIQOV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).



Investitsiya forumida Samarqand taqdimoti

Butunjalon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh As-sambleyasining 25-sessiyasi doirasida tashkil etilgan Global investitsiya forumida viloyatimiz turistik va infratuzilma salohiyati taqdimoti o'tkazildi.

Viloyat hokimining o'rinnobasi Rustam Qobilovning qayd etishicha, bugungi kunda viloyatda 700 dan ortiq madaniy meros obyektlari sayyoohlari orasida ommalashib bormoqda. Shu bilan birga, turizmning gastronomik, ziyorat turizmi, etnoturizm va madaniy turizm kabi turlari rivojlaniq bormoqda. Turizmning boshqa yo'nalishlari, jumladan, ekstremal turizm, tibbiyot turizmi, ekoturizm va ta'lin turizmi kabi turlarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

- Hozirda viloyatimizda 10612 ta o'rning ega 162 ta mehmonxona, 2131 o'rni 81 ta xostel va 3206 o'rindan iborat 350 ta oilaviy mehmon uyi hamda 257 ta turoroperator va turagent faoliyat yuritmoqda. So'nggi 3 yilda ularning soni 2 baravar oshdi, – deydi R.Qobilov. - Samarqand shahrining turizm infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida bunyod etilgan "Silk Road Samarkand" turizm markazida turizmnning barcha yo'nalishlarida xizmat ko'rsatish imkoniyatlari yaratildi.

Yangilangan Samarqand xalqaro aeroportida havo erkinligining beshinchisi darajasi joriy etildi va xorijiy aviakompaniyalar uchun

cheklolvar olib tashlandi. Mazkur aeroport bir kunda 20 ta aviaqatnovin qabul qilish, yiliga 1,5 million sayyohga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ldi. Buning natijasida 2022-yilda Samarqandga dunyoning 152 mamlakatidan tashrif buyuryan sayyoohlari soni o'tgan besi yil bilan solishtirganda 11 barobarga oshdi. Sayyoohlari eksporti hajmi 200 million dollar dan ortiqni tashkil etdi.

Qayd etishicha, ayni paytda viloyatda xorijiy davlatlar ishtirotida 750 ta qo'shma va xorijiy korxona faoliyat olib borayotgan bo'lib, shu yilning yakuniga qadar 1 milliard 200 million dollarlik xorijiy investitsiyalarini jalb etish yuzasidan kehilishvurga erishilgan. Bu ko'rsatkichlarni iqtisodiyotning barcha yo'nalishlarida, ayniqsa, turizm xizmatlari ko'rsatish sohasida bir necha barobar oshirish imkoniyati mavjudligi ta'kidlandi.

Global investitsiya forumi doirasida viloyatimizda turizm va soha infratuzilmasini yana-da rivojlantirish yuzasidan 700 million AQSh dollaridan ortiq miqdordagi shartnomalar imzolandi.

TURKIY DAVLATLAR OQSQQOLLARI UCHRASHDI

17-18-oktabr kuni lari Samarqandda Turkiy davlatlar tashkiloti Oqsqqol- lar kengashining o'n to'rtinchi yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda O'zbekiston, Ozarbayjon, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston oqsqqollar bilan birga kuzatuvchi maqomidagi Turkmaniston, Venegriya hamda ilk bor Shimoliy Kipr turk respublikasi vakkilari ishtirot etdi.

Turkiy davlatlar tashkiloti

Oqsqqollar kengashi raisi

Binali Yildirim yig'ilishni ochar

ekan, awalo, Yaqin Sharq mintaqasida sodir bo'layotgan qo'vealarga munosabat bildirdi.

Kuni kecha G'azo

sektoridagi kasalkonaga uy-

ushtirilgan havo hujumini qat-

tiq qoralab, buning oqibatida

yuzlab insonlar halok bo'lgani

munosabati bilan Falastin

xalqiga hamdaridlik bildirdi.

Jamoat parklari: GO’ZALKENTDAGI XIYOBON QAYTA TIKLANADI

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 11-sentabrdagi “O’zbekiston – 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatlari va o’z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorida barcha shahar va tumanlarda har 50-100 ming nafar aholi uchun jamoat parklarini tashkil etish vazifasi belgilangan. Xo’sh, viloyatimizda mazkur yo’nalishda qanday ishlari olib borilmoqda? Past Darg’om tumani misolda jarayonni o’rganishga harakat qildik.

Tumandagi Go’zalkent mahallasi, unga tutash Olti Qahramon, Paxtakor, Zormon, Guliston mahallalarini qo’shib hisoblaganda, hududdagi aholining o’zi 15 ming nafaridan oshari ekan. E’tiborli, park bir vaqtlar Go’zalkentning tashrif qog’ozni bo’lgan, ayni kunda qarovsiz xiyobon o’rnida tashkil etiladi.

– Ilgari bu joy doimo aholi bilan gavjum bo’ladigan ko’kam va manzarali maskan edi, - deydi Go’zalkent mahallasi raisi Ilhom Norboev. – Keyin u qarovsiz qoldirildi, hech bir mas’ul hududni obodonlashtirish, ko’lamzorlashtirishga e’tibor qaratmadni. Mahallada esa buning uchun mablag’ yo’q. Yillar davomida xiyobonni yon-atrofdagi xonadon egalari obodonlashtirish turdi. Bu vaqt davomida uni daraxtushlardan himoya qilish uchun ham ozmunku zahmat chekmadi.

Darhaqiqat, xiyobon hududida ko’kka bo’y cho’zib, yon-atrofga salqinlik ulashib turgan 50-60 yillik chinor, katalpu, turli archa daraxtlarini ko’rishingiz mumkin. Bog’da sug’orish tizimi nosozligi sababli ayrim allaqachon qu’rib, ochiq maydonchalar hosil bo’lgan. Mahalliy aholi bilan suhbatimiz chog’ida ko’pchilik jamoat parkini qurish bahonasida mavjud daraxtlar ham kesilishidan xavotir bildirdi.

– Xiyobon hududida 400 tupga yaqin daraxt mavjud, - deydi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qiliш va iqilm o’zgarishi tuman bo’limi boshlig’i Akmal Tursunov. – Ularning barchasi tegishli reestrga kiritilgan, kesilishiga yo’l qo’ylmaydi. Park uchun joy tanlashda bu ham



inobatga olingan. Loyiha bo’yicha xiyobonni yashil makonga aylantirish va unda fuqarolarning tabiatdan bahramand bo’lib, ma’naviy hordiq chiqarishi uchun barcha sharoitlarni yaratish belgilangan. Ya’ni loyiha naqaфat fuqarolarning qulayligiga, balki hududdagi ekologiyaning yaxshilanishiga ham xizmat qiladi.

Bu tumandagi yagona loyiha emas. Olti Qahramon mahallasi hududidan oqib o’tuvchi Anhor kanali qirg’og’ida ham jamoat parkini tashkil etish rejalsashirilgan. Biz ayni maqsadda ajaritaligan 50 soxit yerni borib ko’rganimizda, yerni tayyorlash, atrofini obodonlashtirish ishlari boshlab yuborilganiga guvoh bo’ldi.



BARQARORLIK VA FAROVONLIKNING ASOSI

“O’zbekiston – 2030” strategiyasida yalpi ichki mahsulot hajmini 2022-yilgi 80 milliard dollarдан 160 milliard dollargacha, aholi jon boshiga esa 2,2 ming dollarдан 4 ming dollarga yetkazish ko’zda tutilgan. Shu paytgacha o’rtacha yillik iqtisodiy o’sish 5-5,5 foizni tashkil etган bo’lsa, bundan keyin ushbu ko’rsatkich 10 foizdan past bo’lmasligi shart. Bu natijalarga erishish maqsadida hukumatimiz tomonidan keng qamrovli, xalqimiz muhokamasidan o’tgan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan. Ularning negizida iqtisodiy faoliyatda davlat ishtirokini qisqartirish, xususiy mulkchilikka tayanadigan tadbirkorlik faoliyat uchun shart-sharoit yaratish yotadi.

Iqtisodiyotning barqarorligi, aholi turmush farovonligining o’sishi ko’p jihatdan fuqarolarning iqtisodiy hodisa va jarayonlarga ongli munosabatda bo’lishi, iqtisodiy tafakkur va ko’nikmalarning rivojanishiga bog’liq. Chunki mamlakat fuqarolari qanchalik yuqori iqtisodiy faol, moliyaviy savodxonlik ega bo’lsa, ularning hayotning turli jabhalarida qabul qilayotgan qarorlari shunga mos tarzda samarali bo’ladi. Ayniqa, moliyaviy savodxonlik mamlakatda ishbilarmonlik muhitining rivojanishiga, tadbirkorlik faoliyatining kengayishiga imkoniyat yaratadi.

Bugun mamlakatimizda aholining bozor mehanizmlaridan foydalanish darajasi sezilarli ravishda ortib bormoqda. Yangi ish o’rinlari yaratish, iqtisodiy resurslardan foydalanishdagi tejamkorlik hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish kabi muhim jihatlarga ko’proq moddiy manfaatdorlik, rag’batlanish, iqtisodiy dastaklarni ishga tushirish orqali qondashilmoqda.

Bularning barchasi iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida modernizatsiya qilish uchun asos bo’ladi. Biroq iqtisodiyotda samarali va demokratik bozor tamoyillarining to’liq tarkib topishi inson omili, ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilarining iqtisodiy bilim va malakalarini, ko’nikmalari darajasiga, aniqrog’i, ularning iqtisodiy madaniyatiga ham bog’liq.

Shuning uchun jahonnning aksariyat mamlakatlarida aholining moliyaviy savodxonligini oshirish masalasi dolzab arhamiyat kasbi etadi. Bizada ham aholining moliyaviy savodxonligini ta’milash muhim vazifalaridan biri bo’lib, bu boradagi tizimli chora-tadbirlari belgilash, avvalo, mazkur masalaning iqtisodiy mazmuni va iqtisodiy taraqqiyotni ta’milashdagi o’rnini ko’rib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Demak, moliyaviy savodxonlik aholining kundalik hayotdagi oddiy iqtisodiy voqe va jarayonlar, masalan, kommunal xizmatlardan foydalanganligi uchun to’lovlarini amalga oshirishidan boshlab, xususiy yoki davlat sektorida band bo’lish tanlovi, ish haqini penziya olish bilan bog’lash, tadbirkorlik faoliyatini bilan shug’ullanish, uy-joyga ega bo’lish maqsadida davlatdan subsidiya olish va tijorat banklari kreditlaridan foydalanish, pullarni omonatga joylashtirish va boshqalarni qamrab oladi.

Ta’kidlash joizki, moliyaviy savodxonlik asosida inson turadi. Buning uchun inson o’z ixtiyoridagi iqtisodiy resurslardan foydalanishda ro’y berishi mumkin bo’lgan voqe-hodisalar haqida, o’zi hamda jamiyat uchun manfaatlari va samarali bo’lgan bilim va ko’nikmalarga ega bo’lishi lozim. Masalan, Ikkinchah jahon urushida ulkan yo’qotishlarga uchragan, ishlab chiqarish resurslari cheklanganligiga qaramasdan, qisqa muddat ichida katta yutuqlarga erishish Yaponiyani olaylik. U eng zamona viy texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy tizimni yaratadi va dunyoning eng quadrat davlatlari bilan raqobat qilmoqda. Chunki Yaponiya aholisining moliyaviy savodxon bo’lishi uchun mos sharotlari yaratdi. Jahon bozorida hukmron sanoat ajdarları – “Nissan”, “Toshiba”, “Soni” va boshqa yirik kompaniyalar aksiyadorligini jamiyatni shaklida faoliyat yuritdi va ularning qimmatli qog’ozlari xalqning qo’lida qoldi. Shu tarzda ularda demokratik bozor tizimi shakllandi.

Bizada ham aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish uchun quyidagi omillarga ahamiyat berishimiz shart:

Avvalo, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi aholining yetarli ma’lumotlarga egaligi, sog’lig’i va doimi ish bilan bandligi hosilasi hisoblanadi. Ushbu tarkibiy qismlar qanchalik yaxshi ko’rsatkichlarni namoyon etsa, mamlakat aholisining moliyaviy savodxonlik darajasi shunchalik oshadi.

Aholi mentaliteti, ya’ni aqliy, hissiy, madaniy xususiyatlari hamda qadriyatlar majmui ham moliyaviy savodxonlik darajasining shakllanishida muhim o’ren tutadi. Ayrim xalqlar tabiatiga ko’ra, ta’lim va madaniyatga, yangilikka intiluvchan bo’lib, ularning moliyaviy bilim va ko’nikmalari muntazam oshirib boriladi. Ayni paytda aholi mentalitetida mazkur masalalarga zid keluvchi jihatlar mavjud hotlatlar ham uchrab turadi. Misol uchun, “Qiz bola olyi ma’lumoti bo’lishi shart emas”, “O’qiganlarning ahvolini ko’rib turibmiz”, “Ilm olishga jiddiy e’tibor shart emas, diplom qo’iga kirtilsa bo’ldi” kabi.

Shuningdek, mamlakatagi iqtisodiy siyosat buniyodkorlik, yuksalish va taraqqiyot sari yo’ntalirilgan bo’lsa, mazkur maqsadlarga erishishning asosiy sharti sifatida aholining moliyaviy savodxonlik darajasiga e’tibor qaratiladi. Ya’ni, bozor iqtisodiyoti munosabatlarning takomillashib borishi kuchli raqobat muhitini keltirib chiqaradi. Bu jarayon o’z navbatida moliyaviy savodxonlikka bo’lgan tabalni kuchaytiradi.

Bulardan tashqari, mamlakatagi iqtisodiy ta’lim darajasini Singapur, Finlandiyaning ta’lim tizimlaridan andaza olibgina emas, balki o’zimizdagagi mavjud ta’lim tizimini imkon qadar takomillashgan darajaga yetkazishimiz lozim. Masalan, maktablarimizda “Iqtisodiy bilim asosari” fani 8- va 9-sinflarning o’quv rejalarida haftada 1 soat belgilangan. Darslar cheklanganligi sababli mashq’ulotlar nomutaxassislariga, ya’ni geografiya o’qituvchilari yuqlangan. Bitta dars davomida 8-sinf o’quvchini bozor iqtisodiyotining ikki murakkab talab va taklif qonunlarini o’zlashtirish lozim. Muayyan pedagogik stajiga ega o’qituvchi sifatida aytishim mumkinki, ushbu qonunlarni olyi o’quv yurti talabalarining sanoqli qismigina o’zlashtira oladi. Keyingi yillarda esa iqtisodiy fanlar muhandidlik, ijtimoiy soha yo’nalishidagi fakultetlardan olib tashlandi. Tasavvur qiling, axborot texnologiyalari bo’yicha mutaxassislar iqtisodiy bilimlardan mahrhum qilingan. Shunga qaramadan, ularning aksariyati banklar, soliq va statistika organlarida ishga joylashadi. Balki rasmiy hisobotlardagi noaniqliklar, bank xodimlari va mijozlar (kredit ajarish jarayonida), tadbirkorlar hamda soliqchilar o’tasida tez-tez takrorlanib turadigan tortishuvlarning sababi ham moliyaviy savodxonlikning pastligidadir.

**Ilhom VAFOYEV,
iqtisodchi.**

Chiqindi uchun to’lov miqdori nega oshirilmoqda?

Jahonda chiqindi muammoси o’ta dolzab masalalardan biriga aylandi. Maishiy va sanoat chiqindilarining ortib bo’rayotgani ekologik barqarorlikka salbiy ta’sir ko’rsatmoqda. Ma’lumotlarga qaraganda, hozirgi kunda chiqindilarning 900 dan ziyod turi qayd etilgan bo’lib, ularning hajmi yiliga 3-4 foizga ko’paymoqda. Yillar davomida chiqindilar noto’g’ri boshqarilganligi sababli tabiiy resurslarning o’zgarishiga va turli tabiat hodisalari sodir bo’lishiga olib kelyapti.

Chiqindining 80 foizini organik moddalar tashkil qiladi va ularni qayta ishslash natijasida katta miqdordagi energiya va energiya tashuvchilarni ishlab chiqarish mumkin. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi uning 85 foizini qayta ishslash mumkinligini ko’rsatayotgan bo’lsa-da, hozircha faqat 40 foizidan foydalanshi muhassulotlar olinmoqda.

Yurtimzda, xususan, viloyatimizda ham maishiy chiqindillardan oqilona foydalanan bo’yicha qator ishlari olib borilmoqda. Davlat budjeti va xorijiy investitsiya mablag’lari hisobiga 45 ta maxsus texnika va 410 ta chiqindi konteyneri xarid qilish ko’zda tutilgan. Shuningdek, 40 ta chiqindi yig’ish maydonchasi, 19 ta qayta yulash, qayta ishslash va saralash zavodi qurish belgilangan. Amaldagi tarif miqdorlari esa bu loyihalarni amalga oshirishga imkon bermaydi. Ana shularni hisobga olib, Vazirlar Mahkamasi tomonidan barcha viloyatlarga maishiy chiqindilarini to’plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun to’lovlarini qayta ko’rib chiqish topshirig’i berilgan.

- To’rt yildan buyon Fransiya Taraqqiyot agentligi moliyaviy ko’magi bilan “Samarqand shahridagi qattiq maishiy chiqindilarini boshqarishni modernizatsiyalash” loyihasini amalga oshirib kelyapmiz, - deydi “Maroqand Obod” DUK direktori Rasul To’lqinov. – Korxonamiz Samarqand shahri va tumanlarda aholining maishiy chiqindilarini to’plash va olib chiqish xizmati xizmati aholi uchun 1 kishiga 1 oyda 53,9 million so’m investitsiya mablag’lari hisobiga 45 ta maxsus texnika va 410 ta chiqindi konteyneri xarid qilish bo’lib, ularni qayta yulash, qayta ishslash va saralash zavodi qurish belgilangan. Amaldagi tarif miqdorlari esa bu loyihalarni amalga oshirishga imkon bermaydi. Ana shularni hisobga olib, Vazirlar Mahkamasi tomonidan barcha viloyatlarga maishiy chiqindilarini to’plash va olib chiqish xizmati xizmati aholi uchun 1 kishiga 1 oyda 53,9 million so’m investitsiya mablag’lari hisobiga 45 ta maxsus texnika va 410 ta chiqindi konteyneri xarid qilish bo’lib, ularni qayta yulash, qayta ishslash va saralash zavodi qurish belgilangan. Amaldagi tarif miqdorlari esa bu loyihalarni amalga oshirishga imkon bermaydi. Ana shularni hisobga olib, Vazirlar Mahkamasi tomonidan barcha viloyatlarga maishiy chiqindilarini to’plash va olib chiqish xizmati xizmati aholi uchun 1 kishiga 1 oyda 53,9 million so’m investitsiya mablag’lari hisobiga 45 ta maxsus texnika va 410 ta chiqindi konteyneri xarid qilish bo’lib, ularni qayta yulash, qayta ishslash va saralash zavodi qurish belgilangan. Amaldagi tarif miqdorlari esa bu loyihalarni amalga oshirishga imkon bermaydi. Ana shularni hisobga olib, Vazirlar Mahkamasi tomonidan barcha viloyatlarga maishiy chiqindilarini to’plash va olib chiqish xizmati xizmati aholi uchun 1 kishiga 1 oyda 53,9 million so’m investitsiya mablag’lari hisobiga 45 ta maxsus texnika va 410 ta chiqindi konteyneri xarid qilish bo’lib, ularni qayta yulash, qayta ishslash va saralash zavodi qurish belgilangan. Amaldagi tarif miqdorlari esa bu loyihalarni amalga oshirishga imkon bermaydi. Ana shularni hisobga olib, Vazirlar Mahkamasi tomonidan barcha viloyatlarga maishiy chiqindilarini to’plash va olib chiqish xizmati xizmati aholi uchun 1 kishiga 1 oyda 53,9 million so’m investitsiya mablag’lari hisobiga 45 ta maxsus texnika va 410 ta chiqindi konteyneri xarid qilish bo’lib, ularni qayta yulash, qayta ishslash va saralash zavodi qurish belgilangan. Amaldagi tarif miqdorlari esa bu loyihalarni amalga oshirishga imkon bermaydi. Ana shularni hisobga olib, Vazirlar Mahkamasi tomonidan barcha viloyatlarga maishiy chiqindilarini to’plash va olib chiqish xizmati xizmati aholi uchun 1 kishiga 1 oyda 53,9 million so’m investitsiya mablag’lari hisobiga 45 ta maxsus texnika va 410 ta chiqindi konteyneri xarid qilish bo’lib, ularni qayta yulash, qayta ishslash va saralash zavodi qurish belgilangan. Amaldagi tarif miqdorlari esa bu loyihalarni amalga oshirishga imkon bermaydi. Ana shularni hisobga olib, Vazirlar Mahkamasi tomonidan barcha viloyatlarga maishiy chiqindilarini to’plash va olib chiqish xizmati xizmati aholi uchun 1 kishiga 1 oyda 53,9 million so’m investitsiya mablag’lari hisobiga 45 ta maxsus texnika va 410 ta chiqindi konteyneri xarid qilish bo’lib, ularni qayta yulash, qayta ishslash va saralash zavodi qurish belgilangan. Amaldagi tarif miqdorlari esa bu loyihalarni amalga oshirishga imkon bermaydi. Ana shularni hisobga olib, Vazirlar Mahkamasi tomonidan barcha viloyatlarga maishiy chiqindilarini to’plash va olib chiqish xizmati xizmati aholi uchun 1 kishiga 1 oyda 53,9 million so’m investitsiya mablag’lari hisobiga 45 ta maxsus texnika va 410 ta chiqindi konteyneri xarid qilish bo’lib, ularni qayta yulash, qayta ishslash va saralash zavodi qurish belgilangan. Amaldagi tarif miqdorlari esa bu loyihalarni amalga oshirishga imkon bermaydi. Ana shularni hisobga olib, Vazirlar Mahkamasi tomonidan barcha viloyatlarga maishiy chiqindilarini to’plash va olib chiqish xizmati xizmati aholi uchun 1 kishiga 1 oyda 53,9 million so’m investitsiya mablag’lari hisobiga 45 ta maxsus texnika va 410 ta chiqindi konteyneri xarid qilish bo’lib, ularni qayta yulash, qayta ishslash va saralash zavodi qurish belgilangan. Amaldagi tarif miqdorlari esa bu loyihalarni amalga oshirishga imkon bermaydi. Ana shularni hisobga olib, Vazirlar Mahkamasi tomonidan barcha viloyatlarga maishiy chiqindilarini to’plash va olib chiqish xizmati xizmati aholi uchun 1 kishiga 1 oyda 53,9 million so’m investitsiya mablag’lari hisobiga 45 ta maxsus texnika va 410 ta chiqindi konteyneri xarid qilish bo’lib, ularni qayta yulash, qayta ishslash va saralash zavodi qurish belgilangan. Amaldagi tarif miqdorlari esa bu loyihalarni amalga oshirishga imkon bermaydi. Ana shularni hisobga olib, Vazirlar Mahkamasi tomonidan barcha viloyatlarga maishiy chiqindilarini to’plash va olib chiqish xizmati xizmati aholi uchun 1 kishiga 1 oyda 53,9 million so’m investitsiya mablag’lari hisobiga 45 ta maxsus texnika va 410 ta chiqindi konteyneri xarid qilish bo’lib, ularni qayta yulash, qayta ishslash va saralash zavodi qurish belgilangan. Amaldagi tarif miqdorlari esa bu loyihalarni amalga oshirishga imkon bermaydi. Ana shularni hisobga olib, Vazirlar Mahkamasi tomonidan barcha viloyatlarga maishiy chiqindilarini to’plash va olib chiqish xizmati xizmati aholi uchun 1 kishiga 1 oyda 53,9 million so’m investitsiya mablag’lari hisobiga 45 ta maxsus texnika va 410 ta chiqindi konteyneri xarid qilish bo’lib, ularni qayta yulash, qayta ishslash va saralash zavodi qurish belgilangan. Amaldagi

Viloyat axborot-kutubxonasi
markazida O'zbekiston Fanlar
akademiyasi Milliy arxeologiya
markazi bo'lib boshlig'i,
tarix fanlari doktori, professor
Abdulhamid Anorboev muallifligidagi "Axsikent arxeologiya parki" kitob-albomining
taqdimoti bo'lib o'tdi.

Ayni kunlarda Samarqandda bo'lib
o'tayotgan Butunjahon turizm tashkiloti
(UNWTO) Bosh Assambleyasining
25-sessiyasi arafasida tashkil etilgan
tadbirda Oliy Majlis Senati a'zosi
F.Toshev, Turizm qo'mitasi mutaxassisini
T.Mirzayev, Samarqand arxeologiya
instituti direktori Mo'minxon Saidov,
institutning yetakchi ilmiy xodimi,
tarixchi olim Amriddin Berdimurodov,
arxeolog va tarixchi olimlar, turizm sohasi
vakillari va talabalar qatnashdi.

Qadimshunos olimlar tomonidan
"Farg'ona Afrosiyobi" deya ta'rif
berilgan Axsikent yodgorligi Farg'ona
vodiysiagi eng yirik arxeologik yodgorlik
hisoblanadi. Namangan viloyati
To'raqo'r'g'on tumanidagi ko'hna
Axsikent shahri xarobalarini uzoq vaqt
lardan buyon tarixshunos olimlarni
qiziqitirib keladi. Ikki yarim ming yillik
tarixa ega Axsikent dunyo ilm-fani
tarraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan
allomalar, xususan, temuriylar sulo
sining zabardast vakili Zahiriddin Mu
hammad Bobur voyaga yetgan kent si
fatida mashhur. 1620-yildagi kuchli yet
silkinishi gullab-yashnagan Axsikent
tamoman vayronaga aylantirgan bo'lsa
da, uning nomi asrlar qa'rige singib
ketmadi. Axsikent arxeologik jihatdan
o'rganish ishlari XIX asr oxiri va XX asr
boshlari boshlangan. Akademik Yahyo
G'ulomov va arxeolog Inqilob
Ahrorov mazkur tadqiqotlar asosida bu
yerdan turli davrlarga oid ikkita sha

FARG'ONA AFROSIYABI

har bo'lganligini, ulardan biri qadimgi
Axsikent va ikkinchisi Zahiriddin Muhammad
Bobur kamolga yetgan Axsikent
ekanligini isbotlaganlar. Bu yerda
qazishma ishlari olib borayotgan tarix
fanlari doktori,



professor Abdulhamid Anorboevning amaliy mehnatlari evaziga
yodgorlik hududida sakkizta yangi
obyekt ochildi. Ushbu obyektlar ochiq
osmon ostidagi sakkizta muzeylega asos
bo'ladi.

- Buyuk Ipak yo'lida joylashgan
qadimiy Axsikent haqidagi nodir ma'lum
otlarni o'zida jamlochki kitob chop
etish tashabbusi davlatimiz rahbarining
Axsikentga tashrifi chog'ida berilgandi,
- deydi Turizm qo'mitasi mutaxassisini
T.Mirzayev. - O'tgan davr mobaynida
uning ustida katta jamaa puxta ish olib
bordi va o'zbek, rus va ingliz tilidagi ki-



tob-albom
dunyo yuzini ko'rdi.
Ushbu kitob taqdimoti
Samarqandda o'tkazilayotgan BMT Jahon turizm
tashkiloti Bosh Assambleyasining 25-yubiley
sessiyasi arafasida tashkil etilgani
bejiz emas. Xalqaro tadbirlar doirasida
xorijlik sayyohlarga yurtimizdagani yana
bir sayyohlik markazi - Axsikent turizm
manzilini taqdim etishni maqsad qilganimiz.
Bu tarixiy va ziyorat turizmini yana
da rivojlantirishda, Farg'ona vodiysiga
sayyohlар oqimini ko'paytirishda muhim
ahamiyatiga ega.


Ushbu qadimiy shahar o'mida
Markaziy Osiyodagi eng katta muze
tashkil etilyapti. Axsikent ochniq osmon
ostidagi muzeylega aylantirib, xalqaro
sayyohlik yo'nalişlari kiritish ko'zda
tilutigan. Shaharning qadimiy dovrug'i
tiklash maqsadida ramziy darvoza
quriladi. Umarshay Mirzo va Zahiriddin

Muhammad Boburning haykali bun
yod etiladi. Sayyohlar uchun Sirdaryo
bo'ylab qayiqlarda sayr qilish,
tuyada ko'hma shaharni
tomosha qilish imkoniyati
yaratiladi. Turizm shaharchasi
konsepsiyasidan ikkita meh
monxona, karvonsaroy, resto
ran va ovqatlanish tarmog'i,
milliy hunarmandchilik rasta
larini o'z ichiga olgan markaz,
Axsikent arxeologiya merosi
obyektni muhofaza qilish va
tadqiq etish direksiyasi ma'muriy
binosi, zarur infratuzilma, savdo
va xizmat ko'rsatish obyektlari
quriladi.

- Axsikent arxeologiya parki
ni yaratish bo'yicha o'rganishlar
natijasida u nafaqat tarixiy obida,
balki o'zida 15 xil turizm mahsul
tini taklif etadigan markaz bo'lish
imkoniyatiga ega, degan xulosaga
kelindi, - deydi Axsikent arxeologiya
merosi obyektni muhofaza
qilish va tadqiq etish direksiyasi rahbari
Anvar Ikromov. - Tarix ixlosmandlari
uchun arxeologik topilmalar, ochiq
osmon ostidagi muzeylelar majmuasi,
Sirdaryo baliqlari restoranlar tarmog'i,
vodiying noyob qo'lyozmalari kutub
xonasi, ziyorat turizmi obyektlari, Chust
pichog'i, qilichlari ustaxonalar, Qo'qon
ipak qog'ozni markazi, Aksi kulolchilik
ustaxonalar, Etno-modra markazi,
kamonchilik, chavandozlik va bosh
qa milliy o'vnirlarni o'z ichiga oluvchi
etno-sport markazlarini tashkil etish
shular jumlasidan. Axsikent majmuasi
bosh rejasiga ko'ra, uning tadqiqot olib
borilgan obyektlaridan ochiq osmon
ostidagi muzeylelar qurish, hudduda bar
po etiladigan turizm majmuasi loyihasi
uchun 30 million dollar mablag' ajratiladi.

S.MARDIYEV,
B.MUSTANOV (surat).

Abdurahmon QODIROV



Ko'p yillard Bu
lung'ur tumani xalq
ta'limi bo'limiga
rahbarlik qilgan, tu
man ma'orifi sifatini
yaxshilashga o'z
hissasini qo'shgan
fidoyi pedagog,
qobilayatlari ijod
kor Abdurahmon
Qodirov 90 yoshida
vafot etdi.

A.Qodirovni
nafaqat tuman
da, balki viloyatda
ham yaxshi bilis
hardi. Chunki u kishi 40 yillik umrini xalq ta'limi
bag'ishladi, 20 yil tuman xalq ta'limi bo'limiga
rahbarlik qildi. Ustoz yoshlarga ta'lim-tarbiya berish
barobarida, ijod bilan ham shug'ullanardi. Ijodkor
"Istiqlol qo'shig'i", "Tavallo", "Sog'inib yashay
man", "Ruhiyat", "Umri saboqlari", "Mohir bo'lgin
sarkarda" kabi 18 ta she'riy kitobi bosmadan
chiqib, o'quvchilar qalbidan joy egallagan.

Ustozning davlatimiz va xalqimiz oldidagi xiz
matlari munosib taqdirlangan. U kishi "Xalq ta'limi
a'lochisi", "O'zbekiston Respublikasi Mustaqill
gining 10 yilligi", "O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasining 30 yilligi" nishonlari, joriy yilda
esa O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini
qo'llab-quvvatlash "Nuroniy" jamg'armasining
I darajali "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni bilan
taqdirlangan.

O'zbekiston Yozuvchilar va Jurnalistlar uyush
malari a'zosobi A.Qodirov umrining so'ngi
damlarigacha har qanday davlatning ertangi
kuni intellektual salohiyati yuqori, mustaqil fikr
va keng dunyoqarashga ega kadrlarni tayyor
lashga, qolaversa, ularning mehnati va intilishiga
bog'liqligini, barkamol avlodni tarbiyalashdek
o'ta muhim va dolzarb vazifa esa ko'p jihatdan
o'qituvchi va murabbiyilar zimmasiga yuklanishini
yoshlar ongiga singdirishga intildi, shu maqsadda
ijod qildi.

O'z kasbining fidoyisi, kamtarin inson Abdurahmon
Qodirovning yorqin xotirasini yaqinlari,
hamkasblari va shogirdlari qalbida yashaydi.

"Nuroniy" jamg'armasi
viloyat bo'limi.

BUFAKI!

Viloyatimizda oilaqiy korxonalar soni 2023-yil
1-oktabr holatiga 8 067 tani tashkil etib, 2022-yilning
mos davriga nisbatan 79,0 foizga o'sgan.

Tirbandlikka yechim bor(mi?)

Samarqand shahridagi tirbandliklar haqida ko'p muhok
malar bo'lgan va hamon davom etmoqda, lekin natijasi
ko'rinmayapti. Masalaga yechim topilmagach, muammo
yildan yilga kattalashib, tirbandlik kundan kunga ko'payib
bormoqda. Buni tabiiy qabul qilish ham mumkin, chunki
aholi ko'paygani sari transport vositalari ham ortmoqda.



yo'laklarini ham o'z ehtiyojlar uchun
egallab olishgan yoki avtomobilari
qo'yishadi.

Tirbandlikning oldini olishning
yana bir yo'li shahar chetida avtotu
rargoh qurib, tumanlardan yo'lovchi
tashiydigan yuzlab avtomobilarning
shaharga kirishini kamaytirish lozim.
Buning uchun jamoat transpor
tini, uning xizmatlarini yaxshilash
kerak. O'sha avtoturargohlar
dan shaharning turli hududlariga
qatnaydigan avtobus yo'nalishlari
tashkil etish zarur.

Sanab o'ganlarim orasidagi
yana bir masala, ya'ni piyodalar
o'tish yo'llariga kelsak, buning
yechimi sifatida Samarqand
shahrida yo'lovchilar ko'p o'ta
digan joylarda yet osti o'tish yo'li
usti o'tish yo'llari qurish. Dahbed
ko'chasidagi yet osti o'tish yo'li
juda chiroqli va zamonaviy ta'mir
langan holda ochildi, lekin piyodalar
hamon transport vositalari harakatiga
xalaqtir berib va o'z hayotlarini
xatarga qo'yib, yo'ning duch kelgan
joyidan kesib o'tmoqda. Bunga ham
qat'iy choralar ko'rish lozim. Chun
ki yo'lovchida ham harakatlanish
madaniyati bo'lishi kerak.

Muhsin G'ANIYEV,
Turon fanlar akademiyasining
faxriy dotsenti.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-avgustdagagi "Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, ko'chmas mulkni bo'lish, birlashtirish va ularning yangi chegaralarini belgilash bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish tartib-taomili asoslari belgilandi.

Ko'chmas mulkni bo'lish va uning
yangi chegaralarini belgilash uchun
onlayn ariza yo'llash mumkin



bo'lish imkoniyatini o'rganib, abris tayyorlaydi va
ko'chmas mulknинг yangi chegaralarini belgilash
haqida dalolatnomaga tuzadi.

Dalolatnomaga ko'chmas mulklarning mul
dorlari tomonidan elektron raqamli imzo
orqali tasdiqlanadi va dalolatnomaga Qurilish
va uy-joy communal xo'jaligi vazirligi tuman
(shahar) bo'limiga yuborilib, bo'lim tomoni
dan 3 kun ichida kelishiladi.

Z.ABULQOSIMOV,
Oqdaryo tumani davlat xizmatlari markazi
bo'lim boshlig'i.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'londar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

IJARAGA BERILADI

Ishtixon tumani "Mehnat-rohat tex
nikalari" MMTP hududidagi "Ishtixon Gold Grapes" fermer xo'jaligiga (STIR:
305717559, asosiy faoliyat turi uzum
chilik-bog'dorchilik) tegishli 554-kontur
dagi 10,14 hektar sug'orib haydaladigan yer
maydoni uzumchilik yo'nalishida jismoniy
va yuridik shaxslarga shartnoma asosida
ikkilamchi ijaraga beriladi.

Manzil: Ishtixon tumani Damariq
mahallasi, Damariq qishlog'i. Murojaat
uchun telefon: +99894-762-02-84.

DA'VOLAR BO'LSA...

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan
shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev
Farhod Jo'raulovich notarial idorasida
marhum Buribekova Shapaga (2016-yil

31-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk
uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat
bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev
Farhod Jo'raulovich notarial idorasiga
murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak sh
aharchasi, Iстиqlol ko'chasi, 73-uy.

Samargand shahrida xususiy amaliyot
bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola
Zoirovna notarial idorasida marhum Shadi
yev Samejon Abdulaxatovichga (2023-yil
14-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk
uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat
bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial
idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samargand shahri Mirzo
Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot
bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola
Zoirovna notarial idorasida marhum Shadi
yev Samejon Abdulaxatovichga (2023-yil
14-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk
uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat
bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial
idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samargand shahri Mirzo
Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot
bilan shug'ullanuvchi notarius Hamidov Nor
bek Komil o'g'li notarial idorasida marhum
Gabbasova Sarbiga (1998-yil 11-aprelda
vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros
ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan mer
osxo'rlarning Xamidov Norbek Komil o'g'li no
tarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma
shaharchasi, Amir Temur ko'chasi, 48-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot
bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova
Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida
marhum Temurov Ravshan Davronovichga
(2023-yil 17-fevralda vafot etgan) tegishli
mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda.
Shu munosabat bilan merosxo'rlarning
Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial
idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samargand shahri Abdurah
mon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

BEKOR QILINADI

Oqdaryo tumanidagi "OLTINBEK KAM
RONBEK OBOD QURILISH" mas'uliyati
cheklangan jamiyatining (STIR: 306049123)
dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'q
golganligi sababli bekor qilinadi.

Fuqaro Xvan Georgiy Vladimirovich va
Xvan Grigory Vladimirovichga (marhum)
qarashli Samargand shahri Bo'stonsa
roy ko'chasi, 2-yo'lk, 86-uyning ka
dastr hujjatlari to'plami va boshqa yuri
dik hujjatlari yo'qolganligi sababli bekor
qilinadi.

TOPGANGA MUKOFOT!

Butun hayotini ilm-fanga bag'ishlab, ko'plab shogirdlar tayyorlagan, ammo buni minnat qilmagan ustozlar haqida gap ketganda ko'z o'ngimda taniqli fizik olim, akademik, kamtarin inson Tolib Musayevich Mo'minovning qiyofasi namoyon bo'ladi.

Tolib Mo'minov universitetga rektorlik qilgan davrda men fakultet dekani lavozimida ishlaganman va bu insonning haqiqato'yligi, sofdilligi, shu bilan birga, ta'lim va ilm-fanda qat'iyatligi, o'tkir mushohadasi bilan ko'pchilikdan ajralib turishiga ko'p guvoh bo'lganman.

Keyin esa u kishi rahbarlik qilayotgan Yadro fizikasi laboratoriyasiga Mo'min Qodirov bilan tez-tez borib turardik. Albatta, bu suhbatlariiz asosan ta'lim va kadrler tayyorlash to'q'risidagi bahs-munozazarlaridan iborat bo'ldi. Men filolog bo'lganim uchun goh-gohida suhbat yo'nalishini adabiyot va san'atga, ayniqsa, o'rta asrlar tarixi va madaniyatiga burishiga intillardim. Shunda Tolib Musayevich uzoq tariximiz, madaniyatimizning ajralmas qismi bo'lgan islam dini va madaniyati bo'yicha juda ko'p manbalarni, ma'lumotlarni bilishini ko'rib, hayratga tushardim. Domla agar biror bir holat bo'yicha ishonchli ma'lumotga ega bo'lmasa, bu masalada bahsga qo'shilmas edi. Subhadtoshning fikriga qo'shilmagan hollarda ham, unga malol kelmaydigan, uylatirib qo'ymaydigan mazmunda gapirardi.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti bosmaxonasida yaqinda akademik Tolib Mo'minovning 80 yilligi munosabati bilan chop etilgan bibliografiyanı

CHINAKAM ZIYOLINING IBRATI

varaqlar ekanman, shu fikrlar xayolimdan o'tdi.

O'zFA, O'zMU va SamDU fizik olimlari jamoasi tashabbusi bilan tayyorlangan ushu kitobda Tolib Mo'minovning hayoti, ilmiy-pedagogik faoliyati shogirdlari, hamkasb do'stlari, oila a'zolarining xotiralari keltirilgan. Bu xotiralarni o'qib, olimning butun umri faqat va faqat ilmiga, ta'limiga baxshida etilganiga amin bo'lasiz. Shunday bo'lishi ham tabib. Chunki Mo'minovlar sulolasining har bir vakili fidoyi, ilm yo'lida zahmat chekan insonlardir.

Bu sulolaning kattasi Musa Mo'minov ikkinchi jahon urushi davrida Samarqand davlat universitetini qayta tiklagan va uzoq vaqt rektorlik qilgan. Bu insonning katta o'g'i, fizik olim Maqsud Mo'minov ushbu dargohda dotsent, kafedra mudiri, dekan, o'quv ishlari bo'yicha prorektor lavozimlari faoliyat yuritgan. Kichik o'g'i Kamoljon Mo'minov ham yadro fizikasi, astrofizika va kosmos fizikasi bo'yicha mutaxassis.

Musa Mo'minovning ukasi, ya'ni Tolib Musayevichning amakisi Ibrohim Mo'minov O'zbekiston falsafa maktabining asoschisi, O'zFA akademigi, Beruniy nomidagi davlat mukofoti laureati bo'lgan.

Akademik Tolib Mo'minov hayot bo'lganida bu yil 80 yoshni qarshilar edi. Afsuski, beshafqat o'lim u kishini 2021-yil dekabr

oyida oramizdan olib ketdi.

Bibliografiyada Tolib Mo'minovning hayoti, ilmiy faoliyati haqida batafsil hikoya qilingan. Bolalik yillardan boshlab, umrining so'nggi kunlarigacha amalga oshirgan ishlari, ilmiy izlanishlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Qayd etilganidek, u kishi 1960-yilda Samarqand shahridagi 37-o'rtalik maktabni tamolab, Samarqand davlat universitetining fizika fakultetida o'qigan. Universitetni imtiyoziy diplom bilan tugatgan va oddiy muhandislikdan akademikklichkacha bo'lgan mashaqqatli va sharafli yo'lni bosib o'tdi.

U kishi ilmiy tadqiqot instituti direktori, universitet rektori yoki laboratoriya mudiri bo'lganida va boshqa katta-kichiki vazifalarda ham vijdoran mehnat qildi. Inson-parvarligi, sobitqadamligi, o'tkir zehni va buyuk iste'dodi bilan ilm-fanga xizmat qildi, o'nlab fan doktori va nomzodlarini tayyorladi, Samarqand va Toshkentda jahon olimlari e'tiboriga tushgan ulkan qurilmalar yaratdi, laboratoriya va institut tashkil etdi. Bu balandparvoz gaplar emas, Tolib Mo'minovni bilgan insonlar buni yaxshi his qilishadi.

Bugungi kunda Samarqand davlat universiteti rahbariyati, rektorimiz Rustam Xolmurodovning alohida e'tibori tufayli Tolib Musayevich asos solgan yadro fizikasi laboratoriysi mamlakatimiz olyi ta'lim muas-



sasalari ichida eng zamonaqiy, innovatsion tadqiqotlar o'tkazish imkoniyatiga ega markazlardan biriga aylandi. Laboratoriyaning infratuzilmasi yangilandi va modernizasiya qilindi hamda universitet qoshidagi Muhandislik institutining asosiy tarkibiy qismalaridan biriga aylandi.

Tolib Mo'minovning ko'p yillik ilmiy tadqiqot va ta'lim sohasidagi xizmatlari davlatimiz tomonidan yuqori baholangan. U kishi "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlangan, Birlashgan yadro tadqiqotlari institutning faxriy doktori etib saylangandi.

Yetuk olmlarning ilmiy faoliyati, kashfiyat va ixtirolari, yutuqlari keyingi avlodlar uchun maktab bo'ladi, ilm-fanda yutuqlarga erishishida mayoq vazifasini o'taydi. Shu jihatdan Tolib Mo'minov yakuniga yetkaz oлмаган ilmiy izlanishlari ustozning ilm estafetasini sevimali shogirdlari Isobek Xolboyev, Umar Salihbayev, Anvar Inoyatov, Asqar Safarov, Orifjon Mamatqulov, Akmal Safarov va boshqalar sharaf bilan davom ettiriyaptilar.

Shavkat MAHMATMURODOV.

SHU OYDA
TAVALLUD
TOPGANLAR

18-OKTABR

Abduaziz YUSUPOV
(1927-2006) Samarqand shahrida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasi da xizmat ko'rsatgan fan arbobi. Tibbiyot fanlari doktori, professor.

Fazliddin YOQBUBJONOV
1945-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. Diri-jor. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi.

20-OKTABR

Boboqui RUSTAMOV
(1928-2004) Samarqand shahrida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasi da xizmat ko'rsatgan fan arbobi. Tibbiyot fanlari doktori.

22-OKTABR

Bo'ri SALIMOV
(1935-2021) Xatirchi tumanida tug'ilgan. Veterinariya fanlari doktori, professor.

2024-yil uchun obuna bo'lishga shoshiling!

AZIZ DO'STLAR! VILOYAT "MATBUOT UYUSHMASI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI

O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlarning vaqtli matbuot nashrlari (gazeta-jurnallar)ga 2024-yil uchun obuna qabul qilish va rasmiylashtirish boshlanganligini ma'lum qiladi.

Obunani Siz naqd holda, pul ko'chirish yo'li bilan va plastik kartochkalardan to'lash, "Matbuot uyushmasi" MCHJning barcha tuman, shahar uchastkalarida, "Matbuot" kiosklarida, korxona, muassasa, o'quv yurtlari jamoatchilari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, xususiy tadbirkorlar va jamoatchi tarqatuvchilar orqali hamda Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 84-uyda joylashgan "Matbuot uyushmasi" MCHJ bosh ofisida (mo'ljal - aviakassa) har kuni (shanba va yakshanba kunlari ham) soat 8:00 dan 19:00 gacha rasmiylashtirishingiz mumkin.

Murojaat uchun telefonlar:

66-234-22-53, 234-94-37, 234-93-96.

Bizda gazeta va jurnallarga obuna fuqarolarning ish (o'qish) joyiga, uy manziliga yaqin joylashgan "Matbuot" kioskasiga yetkazish sharti bilan rasmiylashtiriladi. Jamiyatimizda Siz O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlarning vaqtli matbuot nashrlariga hamda viloyatimiz gazetalariga obuna bo'lish imkoniyatiga egaiz.

**BIZ SIZGA GAZETA
VA JURNALLARNI YETKAZISH
BO'YICHA ENG MA'QUL
NARXLARNI TAKLIF ETAMIZ.**

"Matbuot uyushmasi" MCHJning barcha xodimlari Sizga namunali xizmat ko'rsatishga tayyor!

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 455 nusxada chop etildi. Buyurtma 567. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Boshishga topshirish vaqt:

soat 18:30 da.

Boshishga topshirildi:

soat 19:00.

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

S.MARDIYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.

ISSN-201667X



Sotuvda
narxi kelishilgan holda

